

YoSh ShAXMATCHILAR SEKTOR KESIMIDA BELLASHDI



YoSh ShAXMATCHILAR SEKTOR KESIMIDA BELLASHDI

“O‘zbekiston Yoshlar ishlari Agentligi kubogi”ni qo‘lga kiritish maqsadida tashkil etilgan 5 bosqichli sportning shaxmat turi bo‘yicha musobaqalarning sektor bosqichi bugun tuman kasb-hunar maktabi – 2-sektorning hududiy bo‘linmasida bo‘lib o‘tdi. Tashkil etilgan mazkur musobaqalarga mahalla bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan yosh shaxmatchilar yetib kelishdi.

- Mahallalar kesimidagi musobaqalarda sektorning jami to‘qqizta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan qariyb 500 nafar yosh shaxmatchilar ishtirok etishdi. Sektor kesimiga yetib kelgan sportchilarning soni 18 nafarni tashkil etadi, - deydi Yoshlar ishlari Agentligi tuman bo‘limi rahbari Isojon Mastonov.

Ishtirokchilar orasida sportchi qizlarning borligi yoshlarning sohaga bo‘lgan shavq va ishtiyoqdan dalolat. Zotan, sportga bo‘lgan ishtiyoq insonni kamolotga yetkazadi.

Sektor kesimidagi g‘oliblikni qo‘lga kiritgan yosh shaxmatchilar navbatdagi – tuman bosqichiga yo‘llanma olishadi. Shaxmat bo‘yicha mazkur turnirning keyingi tuman bosqichi 2-7 may kunlari bo‘lib o‘tadi.

So‘x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-27 10:25:53